



Developing critical thinking in foreign language learning through the use of communicative competence

Mekhriniso AKABIROVA¹

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 April 2025
Available online
25 May 2025

Keywords:

communication-oriented
education,
communicative approach,
critical thinking,
activation,
motivation,
competence.

ABSTRACT

This article examines methods and skills that help activate communication technologies and utilize them effectively in the educational process. The main feature of communicative education is identifying conditions that contribute to the activation of communicative skills in foreign language learning. Consequently, to further improve the quality of education in New Uzbekistan, it is emphasized that it is necessary to develop critical thinking in young students, enrich their knowledge from an early age, and teach them to think independently and create freely.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5/S-pp418-422>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kommunikativ kompetensiyadan foydalangan holda chet tilini o'rganishda tanqidiy fikrlashni shakllantirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

muloqotga yo'naltirilgan
ta'lim,
kommunikativ yondashuv,
tanqidiy fikrlash,
faollashtirish,
motivatsiya,
kompetensiya.

Ushbu maqolada kommunikatsiya texnologiyalarini faollashtirish va ulardan o'quv jarayonida foydalanishga yordam beradigan usul va ko'nikmalar ko'rib chiqiladi. Kommunikativ ta'limning asosiy xususiyati chet tilini o'rganishda kommunikativ ko'nikmalarni faollashtirishga yordam beradigan shartlarni aniqlashdan iboratdir. Shunday ekan, Yangi O'zbekistonda ta'lim sifatini yanada yaxshilash maqsadida talaba yoshlarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga, ularni yoshligidan bilimlarini boyitishga, mustaqil fikrlashini, erkin ijod qilishini yo'lga qo'yishga o'rgatish lozimligi haqida bayon qilingan.

¹ Doctoral student, Samarkand State University named after Sharof Rashidov.
E-mail: akabirovamehriniso@gmail.com

Формирование критического мышления при изучении иностранного языка с помощью коммуникативной компетенции

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

коммуникативно-ориентированное образование, коммуникативный подход, критическое мышление, активизация, мотивация, компетентность.

В данной статье рассматриваются методы и навыки, помогающие активизировать коммуникативные технологии и использовать их в образовательном процессе. Главной особенностью коммуникативного образования является выявление условий, помогающих активизировать коммуникативные навыки при изучении иностранного языка. Поэтому в целях дальнейшего повышения качества образования в Новом Узбекистане утверждается, что необходимо учить молодых студентов развивать критическое мышление, обогащать их знания с юных лет, формировать самостоятельное мышление и свободное творчество.

Mamlakatimizda xalqaro munosabatlarning kengayishi va o'zgarishi tufayli inson hayotida chet tillarga bo'lgan talab kundan-kunga o'sib bormoqda. Kommunikativ yo'naltirilgan o'qitish bu talaba chet tilidan nutq va fikrlash faoliyati vositasi sifatida foydalanishga tayyorligi, talabalarining til, suhbat, amaliy, ijtimoiy, lingvistik va fikrlashda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni anglatadi. O'qitishning kommunikativ yo'nalishi uslubiy va pedagogik faoliyatning barcha tomonlarini belgilaydi. O'quv jarayonida esa kommunikativlik o'rgatish uchun yuqori motivatsiyani yaratishni nazarda tutadi.

Ma'lumki, ta'lim maksimal darajada rag'batlantirilgan joyda muvaffaqiyatli bo'ladi. Motivatsiya deganda o'qituvchining chet tilini chuqurroq o'rganishga ijobiy munosabatda bo'lgan ta'lim faoliyatini yo'naltiradigan rag'batlantiruvchi impulslar tizimi tushuniladi. [1].

Chet tilini kommunikativ o'qitishda asosiy o'rinni o'yin vaziyatlari, sherik bilan ishlash, xatolarni topish bo'yicha vazifalar egallaydi, bu nafaqat so'z boyligini oshirishga imkon beradi, balki bizni analitik fikrlashga o'rgatadi.

Chet tilida nutq so'zlash murakkab integral mahoratdir. U so'zlovchining motivatsiyasi, faolligi va mustaqilligi, maqsadga muvofiqligi, fikrlash bilan bog'liqligi, vaziyatga to'g'ri baho bera olishi bilan tavsiflanadi. Har qanday izchil matnda tematik lug'at va ma'lum grammatik hodisalar mavjud bo'lib, ularning ma'nolarini bilish ham bir mahoratdir [2]. Ushbu bosqichda tanqidiy fikrlashni, ya'ni o'z nuqtai nazarini ifoda etish qobiliyatini shakllantirish va o'quvchi shaxsining o'zini o'zi anglashini ta'minlash uchun o'quv va kognitiv faoliyatni faollashtirish, mustaqillik va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, nutqqa bo'lgan ehtiyoj va istakni uyg'otish ham juda muhimdir.

Tanqidiy fikrlash o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki u ongli va amaliy faoliyatga qodir rivojlangan shaxsning eng muhim jihatini ko'rsatib beradi. An'anaviy va tanqidiy o'qishni solishtirganda, an'anaviy o'qish matnda taqdim etilgan ma'lumotlarni tushunish va qabul qilishga asoslanishini, tanqidiy o'qish esa matn g'oyasini har tomonlama tahlil qilishga qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Bunday o'qishning mahsuli, shunchaki matnda taqdim etilgan ma'lumotlarni yodlash va takrorlash emas, balki matn muallifi aytmochi bo'lgan ma'nolarni baholash va shaxsiy talqin qilishdir [3].

Chet tili darslarida tanqidiy o'qishni o'rgatish tuzilishi talabadan quyidagilarni bajarishni talab qiladigan kommunikativ muammolarni hal qilishni shakllantirish va tashkil etishdan iborat:

- matnda yashirin ma'nolarni qidirish;
- matnning ijtimoiy-madaniy tarkibiy qismlarini aniqlash;
- matnning rag'batlantiruvchi tomonini aniqlash: muallif bizning xatti-harakatlarimizga qanday ta'sir qilishni xohlaydi;
- matn uslubini aniqlash.

Bundan tashqari, tanqidiy o'qish tanqidiy fikrlash jarayonlari asosida turli janrdagi matnlar bilan ishlashda ma'lum ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi:

- mazmunni bashorat qilish, matnning davomini, tugallanishini taxmin qilish;
- muallifning matn muammosiga munosabatini aniqlash;
- o'qiganlaringizni tahlil qilish va baholash, oldingi tajriba va bilimlar asosida o'z munosabatingizni shakllantirish;
- o'qiganlaringiz asosida umumlashma va asosli xulosalar chiqarish.

Kommunikativ yondashuvga tayanish darsning deyarli barcha bosqichlarida o'quv jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Monologik va dialogik nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilar juftlik va guruhlarda muloqot qilish hamda hamkorlik qilishni, o'z-o'zini nazorat qilishni, muloqotning boshqa ishtirokchilarini baholashni o'rganadilar. Loyihalar ustida ishlashda esa talabalar o'z g'oyalarini ishlab chiqish, eng oqilona yechim topish, yangi muammoni ko'rish, ishni rejalashtirish va xulosa chiqarishni o'rganadilar [4].

XXI asrda, har bir o'qituvchi ta'lim resurslari va internetdan unumli foydalanishni bilishi, zamon bilan hamnafas bo'lishi lozim. Misol uchun, ingliz tili darslarida leksik ko'nikmalarning shakllanish darajasini monitoring qilish bo'yicha eng mashhur saytlardan biri bu <http://learningapps.org/login.php> saytidir. U ingliz tilida interfaol o'qitish vositalarini yaratish uchun ishlatiladi. Ushbu sayt shablonlar bilan ishlashga asoslangan bo'lib, nazoratning interaktiv shakllaridan foydalanish imkonini beradi, yopiq testlar, viktorinalar, mavzuga mos krossvordlar va qiziqarli ko'rinishdagi topshiriqlar o'z topshiriqlarimizni yaratish imkoniyatini beradi.

Test (ingliz tilidan – test, o'rganish) – bu topshiriqlar tizimi bo'lib, uning bajarilishi maxsus natijalar shkalasi yordamida tilni bilish darajasini tavsiflash imkonini beradi. An'anaviy nazorat topshiriqlari va test topshiriqlari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, ikkinchisi har doim maxsus shkala (matritsa) yordamida o'lchashni o'z ichiga oladi. Vazifalar shakli ish samaradorligini va natijalarni hisoblash qulayligini ta'minlaydi. Bugungi kunda, xorijiy mamlakatlarda TOEFL testlari (Test of English as a Foreign Language) keng qo'llaniladi. Ularning yordami bilan oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun yetarli darajada ingliz tilini bilish darajasi belgilanadi. Aksariyat AQSh universitetlari TOEFL imtihoniga o'tish balli sifatida 500 raqamini tanlaydi, bu test jarayonida to'g'ri bajarilgan topshiriqlarning 75% ga to'g'ri keladi. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, nufuzli universitetlarga kirish uchun kamida 600 ball to'plash lozim.

IELTS (International English Testing System) ingliz tilida ta'lim olishni xohlovchilar uchun testdir. Har yili 25 mingdan ortiq nomzodlar, shu jumladan Britaniya Kengashi, BMT va boshqa tashkilotlar tomonidan yuborilgan nomzodlar bisyor bo'ladi. Ballardagi natijalar o'qish, tinglash, gapirish va yozish uchun baholanadi.

Close test – o'qish va tushunishda matnning qiyinligini aniqlash uchun test hisoblanadi. U amerikalik olim V. Teylor tomonidan ishlab chiqilgan, asosan, chet tili darslarida nazorat qilish uchun foydalaniladi va yozma shaklda olinadi. Talabalarga kamida 100 va 400 dan ortiq bo'lmagan so'zlardan iborat matn beriladi, unda kontekst bilan ishlashni bilish muhimdir.

Muloqot ko'nikmalarini faollashtirishning ushbu usullari chet tilini o'rganishga qiziqqan har bir kishiga yordam beradi. Samarali metodik usullardan foydalanish chet tilini o'rganishga qiziqishni oshirishga, kognitiv faollikni rivojlantirishga va yuqori natijalarga erishishga imkon yaratadi [5].

Kommunikativ yondashuv o'zining universalligi va moslashuvchanligi tufayli ham mahalliy, ham xorijiy olimlarining diqqat markazida bo'lib, rivojlanishda hali ham davom etmoqda va bugungi kunda O'zbekistonda va xorijda chet tillarini o'qitish amaliyotida tadqiqot, takomillashtirish va rivojlantirish mavzusi bo'lib qolmoqda.

Kommunikativ yo'naltirilgan o'qitish shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni nazarda tutadi, asosiy e'tibor o'quvchilarning o'ziga qaratiladi, ularga darsda ko'proq tashabbus va erkinlik beriladi, bu esa o'z navbatida tanqidiy fikrlashni, shuningdek, kommunikativ strategiyalarni o'rgatishni nazarda tutadi, shunda o'quvchilar muloqot jarayonida oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila oladilar. Kommunikativ faoliyat yordamida tanqidiy fikrlashga zamin yaratish uchun taqdim etilgan metodik usullar, diagnostika vositalari ingliz tilini o'rganishda o'quvchida ijobiy psixologik munosabatni shakllantirishga yordam beradi va o'quv jarayonini motivatsion va maqsadga muvofiq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Васильева М. М. Условия формирования мотивации при изучении иностранного языка // Иностр. языки – 2001. – № 2.- С.40–44 / Vasileva M. M. Usloviya formirovaniya motivatsii pri izuchenii inostrannogo yazika // Inostr. Yaziki, 2001/
2. Захарова Е. А. Коммуникативное обучение иностранному языку и его практическая значимость // Молодой ученый № 5(109) – 2016. – С. 676–679 / Zaxarova Ye. A. Kommunikativnoye obucheniye inostrannomu yaziku i yego prakticheskaya znachimost // Molodoy ucheniy № 5(109)/
3. Лебедева А. Е. Критическое чтение как средство достижения метапредметных результатов обучения иностранным языкам в средней общеобразовательной школе // Иностранные языки – 2018. – № 3. – С. 52–57 / Lebedeva A. Ye. Kriticheskoye chteniye kak sredstvo dostijeniya metapredmetnix rezultatov obucheniya inostrannim yazikam v sredney obsheobrazovatelnoy shkole // Inostrannie yaziki, 2018/
4. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Просвещение, 1991. – 223 с. / Passov Ye. I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. – Prosvesheniye, 1991/
5. Филатова Т. Н. Создание коммуникативных задач на уроке английского языка // Английский язык. – 2012. – № 1(33) – С. 2–4. / Filatova T. N. Sozdaniye kommunikativnix zadach na uroke angliyskogo yazika // Angliyskiy yazik/.